



OILADAGI TARBIYADA BOLA SHAXSINING XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Nazokatxon Otabek qizi

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7960757>

ARTICLE INFO

Received: 14th May 2023

Accepted: 21th May 2023

Online: 22th May 2023

KEY WORDS

Oila, bola shaxsi, tarbiya, xulq – atvor tarbiyasi, axloq, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy muxit, tanbeh, pand-nasihati, injiqlik, “gapga quloq tutmaslik”, e`tiborsizlik, qaysarlik, salbiy odat.

ABSTRACT

Maqolada oiladagi bola tarbiyasidagi xulq – atvor xususiyatlarini shakllantirishning o'ziga xos psixologik jihatlari, bola shaxsidagi xulq – atvor tarbiyasi bo'yicha psixolog olimlar fikrlari, ota – ona hamda farzand xulq – atvor tarbiyasini amalga oshirishdagi jihatlarning mazmuni mohiyati ifodalangan.

Bola ahloqini, odobini takomillashtirish avvalo oilada aks etadi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning bir bo'lagi hisoblanadi. Bola tarbiyasi juda qadim zamonlardan buyon oilada amalga oshirib kelingan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga bog'liq ijtimoiy ta'sirlarni rolini e'tirof etgan holda shunday fikrni bildirgan: “Hozirgi davrda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Bunday keskin taxlikali sharoitda biz ota onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-kuy bu masalada xushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak.”[1.6] Albatta, har qanday jamiyatning kelajagi, yosh avlodning ta'lim-tarbiya olishiga hamda tarbiyalanishiga bog'liq.

Oilada farzand tarbiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlarini ahloqiy tarbiyani izchil va tartibli amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Inson axloqiy, ma'naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada qo'yiladi. Bugungi bola o'tgan asr bolasidan keskin farq qiladi, o'zbek o'g'il-qizlari zamonaviy komil inson siymosiga ega bo'lmog'i lozim. Tabiiyki, bu jarayonda oilaviy tarbiyaning o'rni beqiyos.

Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o'z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, tasavvuri va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui, asosan, oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili muhitidir. O'zbek oilalarida ota va ona, ota-on va bolalar, bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy ko'rinishlari haqida behisob fikrlarni aytish mumkin. Psixologiyada shaxsdagi xulq atvorning rivojlanishi dastlabki yosh



bosqichlariga qaratilgan bo'lib, oilaviy muxitda xulq –atvor tarbiyasini amalga oshirish ko'plab psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan.

Fransuz psixologi E.Dyurkgeym, ulg'ayish - kishilarning his-tuyg'ularni o'zlashtirishi ekanligini, shu bois, idrok qilingan tasavvurlar bolaning ruhiy faoliyatini ifodalashini, bolaning tajriba, an'ana, urf-odatlarni taqlid orqali egallashini, biologiyada irsiyat qanchalik ahamiyatli bo'lsa, taqlid ham jamiyatda shunday o'rin tutishini uqtiradi.[2.67]

Dj.Gevirts yetuklik va go'daklik yoshidagilarning ijtimoiy motivatsiyasi va qaramligini yuzaga kelish shartlarini o'rgangan. Uning yondashuvini yangiligi shundaki, unda bolaning xulq-atvori ota-ona xulq-atvoriga quvvatlovchi ta'sir manbasi sifatida talqin qilingan. Ota-ona rag'batlantirish va jazolash tizimlarini qo'llagan holda o'z farzandining xulq-atvorini shakllantiradi lekin bola hatto go'dak chaqaloq ham jilmayish, kulish, yig'lash vokalizatsiyani namoyish etib, ota-onasida turli xil ko'rinishdagi xulq-atvorini shakllantirishi va nazorat qilishi mumkin deb ko'rsatadi. [3.103]

Dj.Gevirts aniq bir bola uchun u yoki bu stimullarning ta'sirchanligi xususidagi masalani alohida ta'kidlaydi. Bolaning individual rivojlanishida aynan bir xil stimullar ham turli qo'zg'atuvchi kuchga ega bo'lishi mumkin. Ijtimoiy-motivatsion rolni bajarish uchun stimulyatsiya qo'zg'atuvchi rag'bat ahamiyatli funktsional bo'lishi kerak. Muntazam ravishdagi tanbeh pand-nasihat bolaning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmay qo'yadi.

B.F.Skinner "Inson xulq-atvori uning hayoti davomida o'zgaradi va vaqti-vaqti bilan inqirozlar yuzaga keladi degan fikrni qo'llab-quvvatlagan. Inqiroz holati muhitining shunday bir o'zgaralar ta'sirida yuzaga keladiki unda individ xulq-atvor reaksiyalarining adekvat to'plamiga ega bo'lmaydi. [3.87]

Psixolog olimlar tomonidan o'rganilgan xulq- atvor tarbiyasi eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Agar bolani to'g'ri tarbiyalash amalga oshirilmasa, ayrim hatti-harakatlari kutilmagan vaziyatlarda ko'ngilsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bolaning oiladagi tarbiyasi bilan ta'lim-tarbiya jarayonidagi munosabatlari orasida ko'pgina tafovutlar kuzatiladi. Ayrim holatlarda bolaning oilada ota-onasi tomonidan ko'rsatilayotgan ortiqcha hayrihohlik, erkalashlar, uning hohish istagiga ko'ra talablarini qondirishlari atrofda tengdoshlari bilan munosabatlarida tafovutlarga olib kelayotganligi amaliyoti kuzatilmoqda. Shuningdek, pedagog-murabbiy bilan ota-ona munosabatlardagi nomutanosiblik ham bola tarbiyasi uchun salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, deyish mumkin.

Ko'p holatlarda ota-onalar farzandlaridagi injiqlik, "gapga quloq tutmaslik", e'tiborsizlik, qaysarlik va boshqa shu kabi salbiy odatlarning xulq-atvorida uchrayotganlik sabablarini bilmasliklari, bu borada o'qituvchilari bilan bamaslahat ish tutmasliklari oqibatidir. Ba'zi ota-onalar farzandlarini yaxshi tarbiyalash va undan ideallaridagi shaxs yetishib chiqishini orzu qilib, uning oldiga juda og'ir tarbiyaviy shartlarni qo'yadilar, bola erkinligi bo'g'iladi, u qat'iy nazorat muhitida ushlanadi. Oqibatda bola keyinchalik boshqarib bo'lmaydigan, qaysar, har qanday boshqa ijtimoiy sharoitda qiynaladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham motiv har doim anglangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan, maqsadlar va unga yetish vositalari aniq bo'lishi kerak. Shundagina ijtimoiy xulq jamiyatga mos bo'ladi.

Har bir ota –ona o'z farzandida xulq –atvor tarbiyasini amalga oshirishda qo'yidagi jihatlarni eng asosiy jihat sifatida qabul qilishi lozim.



1. Oilada ota-onaning farzandini o'ziga bo'ysundirishga intilishi tarbiya ishida faqat zarar keltiradi. Har bir farzand - avvalambor shaxs va unga shaxs deb qarashga odatlanish kerak, katta va kichiklar o'rtasida hurmat, izzat-ikrom, mehr-oqibat mutloq bo'lishi lozim.

2. Bolaning ruhiy dunyosi hamma narsani to'g'ri qabul qilishga moyil. Shu bois unga biror narsani tushuntirish jarayonida imkon qadar to'g'rilik bilan uqtirish kerak. Bolaning sezgilari kuchli, ko'nikish qobiliyati yuksak bo'ladi. Shuning uchun bir ishni buyurganda "Bilaman, sen bu ishni darhol bajarib tashlaysan, qo'lingdan hamma ish keladi" deb uning ko'nglini ko'tarish lozim. Bunday rag'bat bolaning kuch-g'ayratini oshiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Aslida har qanday psixologik omil ishonchga asoslanadi. Bola bir narsaga ishonsa, uning ruhida, ongi va tafakkurida o'zgarish yuz beradi. Psixologik omilning kuchli yoki zaifligi ham uning bola ongi, ruhi va tafakkurida nechog'lik ishonch uyg'ota olishiga bog'liq. Bola qaysi ishdan ko'proq qanoat hosil qilsa, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi. Bola ma'lum ishni bajarayotganida o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasligi, o'ziga topshirilgan ishni bajara olishini bilishi, buning uchun esa faqat g'ayrat-shijoat va halollik ko'rsatishi kerakligini anglashi lozim. Bolaning qiziqishlari doimo ota-onaning diqqat-e'tiborida bo'lishi lozim.

3. Oiladagixulq -atvor tarbiyasini tashkil etishda bolalarga haddan tashqari ko'p talab qo'yilmaslik kerak, ko'p nasihat qilish ham foyda bermaydi, ta'qiqlash, qo'rqitishlar bilan emas, balki o'rnak ko'rsatish, ibratli xatti-harakatlar bilan tarbiyani namunali yo'lga qo'yish lozim. Shu bilan birga bolalarning hamma talab va xohishlarini bajaravermaslik, turli qiyinchilikdan huda-behuda muhofaza qilavermay, balki murakkab vaziyatlarda sabr-bardosh bilan ish tutish ahamiyatini misollar bilan tushuntirish lozim.

4. Bola hayot haqidagi yaxshilik va yomonlik, foydali yoki zararli tushunchalarni birinchi bor oilada ota-onasi, aka-ukasi va opa-singillaridan oladi. Ota-onaning xarakter xususiyati, xulq-atvori bola tarbiyasida hal qiluvchi omildir, chunki bola ularning har bir harakati, so'zi va har bir qilmishidan ibrat oladi. Shu jihatdan ota-ona ma'nan yuksak, axloqan pok, rostgo'y va madaniyatli bo'lmoqlari lozim. Ayniqsa ota-onaning o'zi odob namunasi bilan ibrat ko'rsatmoq juda muhimdir. Agar biz odobni boylik desak, unga amal qilish esa komillikdir.

5. Bolani mehnat orqali tarbiyalash ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunki qadimdan mehnat-tarbiyaning asosi bo'lib hisoblangan. Zero ular qalbida jismoniy mehnatga nisbatan mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish lozim.

6. Kichik yoshdagi bolalarni yetarlicha baholay olmaydigan janjalli holatlarga ularni aralashtirmaslik maqsadga muvofiqdir, qo'rqinchli yoki yoqimsiz faoliyat turlari bilan shug'ullanishlariga majburlash zararli bo'lib, oilaviy davrada taxlika-xavotir uyg'otadigan voqea-hodisalar haqida gaplashmaslik kerak, shunday ehtiyotkorlik bilangina bolalardagi bezovtalanish va qo'rquv hissi kuchayishining oldi olinadi. Qo'pollik va me'yoridan ortiq qattiqqo'llik o'g'il-qizlarni kattalardan qochishga, agressiv va antisotsial xatti-harakatlar qilishga majburlaydi.

8. Oilada bolaning shaxsi hurmat qilinishi, uning huquq va erkinligi ta'minlanishi, uning poymol etilishi va kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bolaning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish va nazorat qilish zarur. Ota-onalar farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishi lozim.



9. Oilada ma`naviy barkamol avlodni tarbiyalash vositalaridan biri-bu oilaviy an`analarni kundalik tarbiya tizimiga joriy etishdir. Bu jarayonda ota-onalarning roli katta bo`lib, faqat sog`lom muomala va samimiyat muhitgina ijobiy ta`sir ko`rsatuvchi omil hisoblanadi. Bola yaxshilikka duch kelganda o`zini erkin va ruhiyatini tetik his qiladi. Ayni shu holatda amalga oshirilgan tarbiya bola tomonidan ichki hissiyot bilan qabul qilinadi. His qilish bu- munosabat, munosabat esa faoliyat demakdir. Demak, bola tarbiya jarayonida faoliyatga yo`nalish olib ma`naviy kuch va qudratga ega bo`ladi. Oiladagi ma`naviy sog`lom muhit bola dunyoqarashi, bilimining kengayishi, tafakkurining yuksalishida alohida o`rin tutadigan kitob mutoalasi bilan ham bog`liq. Shuning uchun har bir ota-ona bolaning ko`nglida kitobga mehr uyg`otishi, uning bu boradagi qiziqishini rag`batlantirishi lozim. Albatta, o`zi o`rnak sifatida.

10. Oilada qat`iy intizom va kun tartibining bo`lishi bolalar tarbiyasiga ijobiy ta`sir qiladi. Farzandlarning bilim olishdagi yutug`i, axloqi, salomatlik darajasi ko`p jihatdan oilada qaror toptirilgan rejimga bog`liq. Ota-onaning ibratini, bu rejimga oqilona amal qilib namuna bo`lishlari zarur.

Sog`lom oilaviy muhit hamda tarbiyasi, ilmi ota-ona orqali bolaning xulq – atvor tarbiyasini to`g`ri amalga oshirish mumkin. Har bir oilada bola tarbiyasidagi o`ziga xos tarbiyalash an`analari mavjud ammo barcha oilalar uchun ham foydali bo`lgan quyidagi qoidalarni xulosa sifatida keltirishimiz mumkin:

1. Oilangizda mehr, baxt, iliqlik muhiti xukm sursin;
2. Ota-ona farzandida mavjud qobiliyatlarni rivojlantirishga harakat qilsin;
3. Tarbiyada farzandingizning yosh xususiyatlari, shaxs xususiyatlari, jinsi va boshqa xususiyatlarni inobatga oling;
4. Oiladagi tarbiyani o`zaro hurmatga asoslangan holda olib boring;
5. Boladagi ko`p kamchiliklar ota-onasidagi kamchiliklardir - bola ota-onasining xulqini beixtiyor takrorlaydi (tarbiyani o`zingizdan boshlang);
6. Bolani tarbiyalashda uning ijobiy sifatlariga tayaning (faqat kamchiliklariga urg`u bersangiz, bola qaysarlikdan ham o`zgarmaslikka harakat qiladi)
7. Har kuni bola bilan muloqot uchun vaqt toping;
8. Bolaning muammolarini biling, ularni birgalikda tahlil qiling;
9. Bolaga mustaqil qaror qabul qilishga imkon yarating.

References:

1. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Nomonjonova, F. U., Qodirova, S. Q., & Arabxonova, X. A. (2021). Classification Of Competition In The Market Of Light Industrial Goods And The Factors That Shape It. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 43-46.
2. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Abdulkarimova, R. A., Xudoyberdiyeva, X. B., & Egamberdiyeva, N. B. (2021). Theories Of Marketing Strategies To Increase The Competitiveness Of Light Industry Enterprises. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 40-42.
3. Xonkeldiyeva, K., & Xo`jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.



4. Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Features of management of textile industry enterprises based on the cluster approach. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 780-783.